

TASDIQLASH:
Bosh direktorning texnika va AT bo'yicha o'rinbosari
A.R. Abduraxmonov

(imzo)

«31» 07 2025 y.



2025-2026-yillarda Qashqadaryo viloyatidagi Chiroqchi, Kitob, Shahrizabz, Yakkabog, Qamashi (qisman) tumanlari va Shahrizabz shahrida “UMS” MCHJ obyektlarida joylashgan minoralarga, ustunlarga va temir tuzilmalarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlarini bajarish uchun texnik talab

Toshkent shahri
2025 yil

Mundarija

1. Umumiy ma'lumot	3
1.1 Bajariladigan ishlar yoki ko'rsatiladigan xizmatlar nomi	3
1.2 Bajariladigan ishlar yoki ko'rsatiladigan xizmatlar asosi va maqsadi	3
1.3 Ishlar va xizmatlar ro'yxati	3
2. Qo'llash sohasi	3
3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar	3
4. Ishlarni bajarish yoki xizmat ko'rsatish muddati	6
5. Xavfsizlik talablari	6
6. Qabul qilish va topshirish qoidalariga qo'yiladigan talablar	6
7. Kafolat hajmiga va/yoki taqdim etish muddatiga qo'yiladigan talablar	6
8. Obyektga eksklyuziv huquqlar va boshqa hujjatlarni taqdim etish tartibi	7
9. Xodimlarni texnik oqitishga qo'yiladigan talablar	7
10. Qo'shimcha talablar	7
11. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati	7
12. Ilovalar ro'yxati	7

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1 Bajariladigan ishlar yoki ko'rsatiladigan xizmatlar nomi

2025-2026-yillarda Qashqadaryo viloyatidagi Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog, Qamashi (qisman) tumanlari va Shahrisabz shahrida "UMS" MCHJ obyektlarida joylashgan minoralarga, ustunlarga va temir tuzilmalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarish.

1.2 Bajariladigan ishlarni yoki ko'rsatiladigan xizmatlarni asosi va maqsadi

2025-2026-yillarda Qashqadaryo viloyatidagi Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog, Qamashi (qisman) tumanlari va Shahrisabz shahrida "UMS" MCHJ obyektlarida joylashgan minoralarga, ustunlarga va temir tuzilmalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarishdan maqsad, RH45-267:2018 "Antenna-ustun inshootlaridan foydalanish qoidalari" rahbariy hujjatini va shuningdek 2018 yil 19 apreldagi 16/4-son O'zkomnazorat buyrug'i ijrosini ta'minlash.

1.3 Ishlar va xizmatlar ro'yxati

Barcha ishlar ko'lami, miqdori va tavsiflangan talablarga muvofiq amalga oshiriladi. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun zarur bo'lgan hamma materiallarni Pudratchi o'z hisobidan sotib oliadi va ularning qiymatlari tijorat taklifi narxiga kiritilishi kerak, barcha ishlar ilovalarda keltirilgan:

- 1.1-1.3 - ilovalarda Pudratchining obyektlarga tashrifi bilan amalga oshiriladigan texnik xizmat ko'rsatish ishlarining ro'yxati keltirilgan;
- 1.1.T-1.4.T - ilovalarda Pudratchining obyektlarga tashrifi bilan amalga oshiriladigan texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash (bo'yash) ishlarining ro'yxati keltirilgan;
- 1.5 – ilovada xizmat turlari va ularning hajmi keltirilgan.

Korxona omborida zarur bo'lgan ehtiyot qismlar mavjud emas.

2025-2026-yillarda Qashqadaryo viloyatidagi Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog, Qamashi (qisman) tumanlari va Shahrisabz shahrida "UMS" MCHJ obyektlarida joylashgan minoralarga, ustunlarga va temir tuzilmalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha ishlar oxirgi marta 2023-2024 yillarda amalga oshirilgan.

2. Qo'llash sohasi

Antenna ustun inshootlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarish Qashqadaryo viloyatidagi Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog, Qamashi (qisman) tumanlari va Shahrisabz shahrida obyektlarda amalga oshiriladi. Har bir obyektning manzili va raqami shartnomani buyurtmasida ko'rsatiladi.

3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

Ishtirok etish uchun uyali aloqa antenna ustun inshootlariga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, o'rnatish yoki ishlab chiqarish bo'yicha ish tajribasiga ega bo'lgan tashkilotlarga ruxsat beriladi.

Har bir ishtirokchi kamida ikkita ish guruhlariga ega bo'lishi shart.

Har bir ishtirokchida bir guruh uchun kamida bitta yuqorida ishlash huquqiga ega ishchi (alpinist) bo'lishi shart.

Har bir ishtirokchida ish uchun zarur bo'lgan kamida bitta sertifikatga ega teodolit va bitta po'lat arqon taranglik kuchini o'lchash qurilmalari bo'lishi shart.

Har bir ishtirokchi Balandliklarda sanoat alpinizmi usullarida ta'mirlash, qurilish-montaj ishlarni bajarish faoliyati litsenziyasiga ega bo'lishi shart.

Har bir ishtirokchining hududda ma'sul hodimi bo'lishi shart, hudud miqyosidagi masalalar shu hodim orqali hal qilinadi.

Har bir ishtirokchining loyiha menejeri bo'lishi tavsiya etiladi, barcha masalalar bevosita loyiha menejeri orqali hal qilinadi.

Antenna ustun inshootlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari RH45-267: 2018 "Antenna-ustun inshootlaridan foydalanish qoidalari" rahbariy hujjatiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Hujjatlarni topshirishda uchinchi ilovada keltirilgan «Texnik talablarga muvofiqlik jadvalini» to'ldirish va taqdim etishi kerak. Jadvalni to'ldirishda xodimlarning haqiqiy sonini, istirokchiga tegishli bo'lgan sertifikatga ega qurilmalarni, yuqorida ishlash huquqiga ega ishchilar (alpinist) sonini va guvohnomasini, Balandliklarda sanoat alpinizmi usullarida ta'mirlash, qurilish-montaj ishlarni bajarish faoliyati litsenziyasini ko'rsatish kerak.

Har bir ishtirokchi «Texnik talablarga muvofiqlik jadvalini» muhr bilan tasdiqlangan PDF elektron fayl shaklida taqdim etishi shart.

Narx taklifi 1-jadvalda ko'rsatilgan shaklda bo'lishi kerak.

1-Jadval

1	ISH TURLARI	O'lchov birligi	soni	Bir dona narxi, QQS siz	QQS qiymati	Bir dona narxi, QQS bilan	Umumiy narxi, QQS bilan
1.1	BALANDLIGI 30m DAN OSHMAGAN TOM QISMIDA JOYLASHGAN USTUNGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH, (1.1 - ilovada kiritilgan ishlarning batafsil tavsifi ko'rsatilgan)	dona	19		12%		
1.2	BALANDLIGI 30m DAN OSHMAGAN TOM QISMIDA JOYLASHGAN USTUNGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH, (1.1.T - ilovada kiritilgan ishlarning batafsil tavsifi ko'rsatilgan)	dona	13				
1.3	BALANDLIGI 30m DAN OSHMAGAN YERDA JOYLASHGAN USTUNGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH, (1.2 - ilovada kiritilgan ishlarning batafsil tavsifi ko'rsatilgan)	dona	45				
1.4	BALANDLIGI 30m DAN OSHMAGAN YERDA JOYLASHGAN USTUNGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH, (1.2.T - ilovada kiritilgan ishlarning batafsil tavsifi ko'rsatilgan)	dona	21				
1.5	BALANDLIGI 40m DAN OSHMAGAN YERDA JOYLASHGAN MINORAGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH (1.3 - ilovada kiritilgan ishlarning batafsil tavsifi ko'rsatilgan)	dona	115				
1.6	BALANDLIGI 40m DAN OSHMAGAN YERDA JOYLASHGAN MINORAGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH (1.3.T - ilovada kiritilgan ishlarning batafsil tavsifi ko'rsatilgan)	dona	2				
1.7	BALANDLIGI 30m DAN OSHMAGAN YERDA JOYLASHGAN MINORAGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH (1.3.T - ilovada kiritilgan ishlarning batafsil tavsifi ko'rsatilgan)	dona	6				
1.8	PANJARALI TO'SIQNI BO'YASH (1.4.T - ilovada kiritilgan ishlarning batafsil tavsifi ko'rsatilgan)	dona	24				
2	TAYANCH USTUNIGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH, shu jumladan:						
2.1	Ikki tomonlama burama tishli bog'ichlarni almashtirish, o'rnatish	dona	1		12%		

3	TAYANCH USTUNINI TUTIB TURUVCHI TIZIMGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH , shu jumladan:						
3.1	Yetishmayotgan po'lat arqoni to'plamini almashtirish yoki o'rnatish. To'plam 2 (ikki) dona po'lat arqonni eskirishdan himoya qilish uchun yarim aylana (koush), 6 (olti) dona qisqichlar va 1 (bir) dona po'lat argondan iborat.	to'plam	1		12%		
3.2	Po'lat arqonlarini moylash. Temirli tuzilmalar va uning atrofini moydan tozalash. "Торсиол-35Э", "Канатная-39У" yoki "Б03-1" turidagi moy ishlatiladi.	obyekt	47				
4	TOM QISMIDA JOYLASHGAN TAYANCH USTUN ASOSIGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH , shu jumladan:						
4.1	Ustun poydevori va anker mahkamlagichlari asoslari atrofini namlikdan himoyalash qoplamasini tiklash. Anker mahkamlagichlar asoslari atrofini 1m2 dan va ustun poydevor asosini har bir tomonga 0,3m kam bo'lmagan folgoizol tom yopish qoplamasidan foydalanish shart.	obyekt	1		12%		
5	PANJARALI TO'SIQLARGA XIZMAT KO'RSATISH , shu jumladan:						
5.1	Panjara to'sig'i bitta bo'limi yoki panjara eshigini to'rini tiklash	dona	1		12%		
5.2	Panjara to'sig'i bitta bo'limi yoki panjara eshigini to'rini to'liq almashtirish	dona	1				
5.3	Panjara to'sig'i bitta bo'limi yoki panjara eshigini almashtirish yoki tiklash	dona	1				
6	USTUNNI HIMOYA CHIROG'I TIZIMIGA (YCHT) HIZMAT KURSATISH , shu jumladan:						
6.1	HCHT yoritgichini almashtirish yoki o'rnatish. HCHT yoritgichiga qo'yilgan talablar: - himoya sifati kamida IP65 bo'lishi shart - ~180 - ~280 V AC - I _{max} - 15 A - qizil rang - E27 standartiga mos yorug'lik manbasini (lampochkani) almashtirish imkoniyati bo'lishligi. - ishlash harorati -20C - + 50C - Shisha yoki chidamli optik polikorbanat qolibli - HCHT yoritgichini o'rnatish va mahkamlash uchun quvursimon ustun, kerakli materiallar va mahkamlagichlar bo'lishi shart.	dona	29		12%		
6.2	Yorug'lik fotorelesini almashtirish yoki o'rnatish. Yorug'lik fotorelesi talablari: - himoya sifati kamida IP65 bo'lishi shart - ~180 - ~280 VAC - I _{max} - 15 A - yoqib-o'chirish uchun sozlash diapazoni bo'lishi shart - ish harorati -20C - + 50C Yorug'lik fotorelesini o'rnatish va mahkamlash uchun kerakli materiallar va mahkamlagichlar bo'lishi shart.	dona	29				
6.3	Taqsimlash qutisini almashtirish yoki o'rnatish. Himoya sifati kamida IP65 standartiga mos bo'lishi shart - tarqatish qutisini o'rnatish va mahkamlash uchun kerakli materiallar va mahkamlagichlar bo'lishi shart.	dona	29				
6.4	HCHT elektr kabelini almashtirish yoki o'rnatish (kabel turi ББПВ 4x2,5). HCHT elektr kabeli uzunligi HCHT yoritgichida o'rnatilgan patrondan boshlab uskuna turgan xonagacha uzunlikda bo'lishi shart. HCHT elektr kabelini o'rnatish va mahkamlash uchun kerakli materiallar va mahkamlagichlar bo'lishi shart.	obyekt	27				
7	FIDER VA SOVUTGICH KIRISH O'RINLAR ZICHLIGINI BARTARAF ETISH , shu jumladan:						
7.1	Fider kirish o'rini montaj ko'pigi bilan tashqi va ichki tomonlama to'ldirish. Tashqi tomon ustidan qurilish saqichi bilan qoplash.	obyekt	2		12%		
7.2	Sovutgich kirish o'rini montaj ko'pigi bilan tashqi va ichki tomonlama to'ldirish. Tashqi tomon ustidan qurilish saqichi bilan qoplash.	obyekt	2				

4. Ishlarni bajarish (xizmat ko'rsatish) muddati

Shartnomaning amal qilish muddati har ikki tomon imzolagan kundan boshlab 18 oyni tashkil qiladi. Shartnomaning amal qilish muddati davomida Buyurtmachi Pudratchiga ishlarni bajarish uchun buyurtma berish huquqiga ega. Ushbu Shartnoma bo'yicha berilgan buyurtmalar muddati, Shartnoma muddatidan qat'i nazar, tomonlar barcha majburiyatlarni to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

1.1-1.3-illovalarda ko'rsatilgan ishlarni bajarish muddati bir obyekt uchun ikki ish kunidan ortmasligi kerak. 1.1.T-1.4.T-illovalarda ko'rsatilgan ishlarni bajarish muddati bitta obyekt uchun to'rt ish kunidan ortmasligi kerak.

5. Xavfsizlik talablari

Pudratchi ishlarni bajarish davomida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi shart.

Agar Pudratchi majburiyatlarni bajarish natijasida Buyurtmachi yoki uchinchi shaxslarning mol-mulkiga zarar yetkazsa, Pudratchi barcha zararni to'liq qoplashi shart.

Agar ishlarni bajarish natijasida ishlab chiqarish chiqindilari hosil bo'lsa, Pudratchi hududni tozalab va chiqindilarni olib tashlashni ta'minlashi shart.

6. Qabul qilish va topshirish qoidalariga qo'yiladigan talablar

Har bir obyekt bo'yicha ishlarni topshirish uchun 2-ilovaga muvofiq hujjatlar to'plami shakllantirilishi va taqdim etilishi shart.

1.1-1.3 va 1.1.T-1.4.T - illovalarda ko'rsatilgan ishlar Buyurtmachi tomonidan Buyurtma berilgandan so'ng amalga oshiriladi.

1.5 - ilovada ko'rsatilgan ishlar (1-banddagi ishlar bundan mustasno) Buyurtmachi bilan kelishilganidan keyin va Buyurtma berilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Bajarilgan ishlarni tekshirish va qabul qilish uchun dastlabki tashrif Pudratchining avtotransport vositasida amalga oshiriladi. Agar ishni qabul qilish davomida kamchiliklar aniqlansa, Pudratchi ularni to'liq bartaraf etishga majburdir. Bartaraf etilgan kamchiliklarni tekshirish uchun takroriy tashrif Pudratchining avtotransport vositasida amalga oshiriladi.

7. Kafolat hajmi va/yoki taqdim etish muddatiga qo'yiladigan talablar

Hamma ishlar va foydalanilgan materiallar uchun kafolat muddati Buyurtmachi tomonidan ish qabul qilingan kundan boshlab 2 (ikki) yilni tashkil qiladi.

8. Obyektga eksklyuziv huquqlar va boshqa hujjatlarni taqdim etish tartibi

Hech qanday talablar yo'q.

9. Xodimlarni texnik oqitishga qo'yiladigan talablar

Hech qanday talablar yo'q.

10. Qo'shimcha talablar

Ishlatiladigan barcha qurilish mollari yuqori sifatli bo'lishi va ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar bo'lishi tavsiya etiladi.

Barcha yechib olingan ehtiyot qismlar, elektr kabellar, qurilish mollari va materiallar Buyurtmachining vakiliga topshirilishi shart.

Ish davomida almashtirilgan barcha ehtiyot qismlar, elektr kabellar, qurilish mollari va materiallar 2 – ilovada keltirilgan hujjatlarda ko'rsatib o'tilishi kerak.

Barcha o'lchovlar O'z Davlat standarti tomonidan tekshiruvdan o'tgan sertifikatga ega qurilmalar yordamida amalga oshirilishi shart. Dalolatnomaga qurilmalar tekshirilganini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi kerak.

Ish tugaganligi to'g'risida imzolangan dalolatnomalar asosida ish to'liq yakunlangan deb hisoblanadi. Dalolatnomada ishlar umumiy ro'yxatining har bir bandi bo'yicha ish natijalarini aks ettirilishi kerak. Ikkinchi ilovada keltirilga hujjatlar dalolatnomaga ilova qilinishi kerak. Ikkinchi ilovada ko'rsatilgan hujjatlar yakuniy ko'rinish hisoblanmaydi va ularga Buyurtmachi tomonidan tuzatishlar kiritilishi mumkin.

Bundan tashqari, antenna ustun inshootlaridan foydalanish bo'yicha va shu jumladan antenna ustun inshootlarini kapital ta'mirlash bo'yicha ishlar nuqsonli dalolatnomada tavsiyalar berilishi kerak. Tekshirib bo'lgandan so'ng dalolatnomada po'lat o'rama simlarining holatini (tros), antenna ustun inshootlari elementlarini va shu jumladan antenna ustunning bo'yoq holatini aks ettirishi kerak.

Ishlarni o'z vaqtida bajarmaganligi uchun Buyurtmachi Pudratchidan kechiktirilgan har bir kun uchun 1% miqdorida, lekin buyurtma qiymatining 50% dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'lashni talab qilishi mumkin.

Ishlarni sifatsiz bajarganligi uchun Buyurtmachi Pudratchidan buyurtma qiymatining 50% miqdorida jarima solishi va Buyurtmachi tomonidan ilgari to'langan avans to'lovini qaytarishni talab qilishi mumkin.

Belgilangan muddatlarni muntazam ravishda buzganlik va ishlarning sifatsiz bajarilganligi uchun Buyurtmachi shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.




11. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati

T/r	Qisqartma	Qisqartirishni tushuntirish
1	AU	antenna ustun
2	AUT	antenna ustunining tuzilishi
3	UMS	UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS
4	RH	Rahbariy hujjat

12. Ilovalar ro'yxati

T/r	Ilova nomi	Betlar soni
1.1	BALANDLIGI 30m DAN OSHMAGAN TOM QISMIDA JOYLASHGAN MACHTA KONSTRUKSIYALARIGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH	ikki bet
1.1.T	BALANDLIGI 30m DAN OSHMAGAN TOM QISMIDA JOYLASHGAN MACHTA KONSTRUKSIYALARIGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH	ikki bet
1.2	BALANDLIGI 30m DAN OSHMAGAN YERDA JOYLASHGAN USTUNGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH	ikki bet
1.2.T	BALANDLIGI 30m DAN OSHMAGAN YERDA JOYLASHGAN USTUNGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH	uch bet
1.3	BALANDLIGI 40m DAN OSHMAGAN YERDA JOYLASHGAN MINORAGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH	ikki bet

1.3.T	BALANDLIGI (40m yoki 30m) DAN OSHMAGAN YERDA JOYLASHGAN MINORAGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH	ikki bet
1.4.T	PANJARALI TO'SIQNI BO'YASH	bir bet
1.5	XIZMAT TURLARI VA ULARNING HAJMI	ikki bet
2	HUJJATLAR TO'PLAMI	O'n bet
3	Texnik talablarga muvofiqlik jadvalini	bir bet

Ishlab chiqildi:*HBO'A va NFG Eksperti**Djunayev J.U.***Kelishildi:***KKTF va TYK bo'limi boshlig'i**Tashxo'jaev U.M.**TFD direktori**Usmanov B.H.**PB bo'limi boshlig'i**Otaboev B.X.*